“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Mahkumlarni topshirish bo‘yicha universal xalqaro-huquqiy rejim: holati va takomillashtirish yo‘llari

Olim Saidov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi o‘qituvchisi
e-mail: olimsaidov1976@mail.ru

Аннотация. Mazkur maqolada mahkumlarni topshirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikning universal huquqiy rejimi tadqiq etilgan. Tadqiqot predmeti BMT tizimidagi namunaviy shartnomalar, konvensiyalar va INTERPOLning koordinatsion faoliyatidan iborat. Mavzuning dolzarbligi mazkur sohada yagona kodifikatsiyalashgan xalqaro hujjat mavjud emasligi bilan belgilanadi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-huquqiy va qiyosiy-huquqiy tahlil usullariga asoslangan. Natijada aniqlandiki, “Chet ellik mahkumlarni topshirish to‘g‘risidagi” namunaviy shartnoma asosiy yo‘naltiruvchi hujjat bo‘lsa-da, u majburiy kuchga ega emas va protsessual masalalarni to‘liq qamrab olmaydi. INTERPOL esa muhim koordinatsion vazifani bajaradi. Natijalar xalqaro-huquqiy tizimni takomillashtirishda, shuningdek milliy qonunchilikka Nelson Mandela qoidalarini to‘liq joriy etishda qo‘llanilishi mumkin.

Калит сўзлар. mahkumlarni topshirish, ekstraditsiya, BMT namunaviy shartnomasi, INTERPOL, Nelson Mandela qoidalari, xalqaro hamkorlik, ijtimoiy reabilitatsiya.

Аннотация. В данной статье исследуется универсальный правовой режим международного сотрудничества по передаче осуждённых лиц. Предметом исследования являются типовые договоры и конвенции системы ООН, а также координационная деятельность Интерпола. Актуальность темы обусловлена отсутствием единого кодифицированного международного документа в данной сфере. Методология исследования основана на историко-правовом и сравнительно-правовом методах анализа. В результате установлено, что Типовое соглашение о передаче иностранных заключённых, являясь основным ориентирующим документом, не обладает обязательной юридической силой и не охватывает в полной мере процессуальные вопросы. Интерпол на практике выполняет важную координационную функцию. Результаты исследования могут быть применены при совершенствовании международно-правовой системы, а также при полной имплементации Правил Нельсона Манделы в национальное законодательство.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ключевые слова. передача осуждённых, экстрадиция, типовое соглашение ООН, Интерпол, Правила Нельсона Манделы, международное сотрудничество, социальная реабилитация.

Annotation. This article examines the universal international legal regime governing cooperation in the transfer of sentenced persons. The subject of the research encompasses UN model treaties, conventions, and the coordinating activities of INTERPOL. The relevance of the topic is determined by the absence of a single codified international instrument in this field. The research methodology is based on historical-legal and comparative-legal analysis methods. The findings reveal that although the Model Agreement on the Transfer of Foreign Prisoners serves as the primary guiding instrument, it lacks binding legal force and does not fully address procedural matters. INTERPOL, despite lacking formal legal authority, performs an essential coordinating function in practice. The results may be applied in improving the international legal system and in fully incorporating the Nelson Mandela Rules into national legislation.

Keywords. transfer of sentenced persons, extradition, UN model agreement, INTERPOL, Nelson Mandela Rules, international cooperation, social rehabilitation.

Mahkumlarni topshirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikning huquqiy tizimi ko‘p qatlamli institutsional mexanizmdan iborat bo‘lib, unda BMT tizimi doirasidagi universal xalqaro hujjatlar, mintaqaviy konvensiyalar, transmilliy jinoyatlar bo‘yicha shartnomalar, xalqaro tashkilotlar va sud muassasalari o‘zaro ta’sir ko‘rsatib, birgalikda global huquqiy tartibni shakllantiradi. Ushbu tizim yagona kodifikatsiyalashgan hujjatga ega emasligi va juda ko‘p manbalardan tashkil topishiga qaramasdan, u o‘zining rivojlanish tendensiyasi jihatidan umummajburiy prinsiplarga tobora yaqinlashayotgan integrativ huquqiy mexanizmni tashkil etadi.

Mahkumlarni topshirish institutining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi masalasida asosiy e’tibor mazkur sohaga oid bo‘lgan universal, mintaqaviy va ikki tomonlama xalqaro shartnomalarni tahlil qilishga qaratiladi.

Bugungi kunga qadar mahkumlarni topshirish tartibi, shartlari va prinsiplari borasida tizimli huquqiy asoslar to‘liq shakllanmagan. Lekin shunga qaramasdan, mazkur sohaning xalqaro-huquqiy tartibga solinishi birmuncha amalga oshirilgan. U yoki bu hujjatlarda mazkur sohani amalga oshirish masalalariga qisman bo‘lsa ham to‘xtalib o‘tilgan. Ular asosan jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olish, o‘zaro huquqiy yordam ko‘rsatish yoki ekstraditsiyaga oid xalqaro hamkorlik hujjatlarida, BMT va boshqa mintaqaviy tashkilotlarning namunaviy shartnomalarida hamda davlatlarning ikki tomonlama bevosita mahkumlarni topshirish bo‘yicha shartnomalarida o‘z aksini topgan.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Mahkumlarni topshirish institutini tartibga soluvchi universal huquqiy asosning poydevori Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966)da mustahkamlangan. 2011-yilning 25-yanvar holatiga ko‘ra, 167 davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan yoki unga qo‘shilgan ushbu Paktning 10-moddasi 3-bandi penitensiar tizimning “asosiy maqsadi” mahbuslarni “isloh etish va ijtimoiy reabilitatsiya” ekanligini belgilaydi [1]. Shunga qaramasdan, jahon amaliyotida ilk marotaba bevosita mahkumlarni topshirish instituti 1975-yilda bo‘lib o‘tgan **Jinoiy odil sudlov va jinoyatchilikni ogohlantirish bo‘yicha BMT V Kongressi** kun tartibiga kiritildi[2]. Jinoiy odil sudlov va jinoyatchilikni ogohlantirish bo‘yicha BMT Kongressi har besh yilda jinoyatchilikning oldini olish va jinoiy sudlov sohasida ish olib boruvchi siyosat arboblari va amaliyotchi mutaxassislarni BMTning kun tartibi va standartlarini belgilashga ko‘maklashish maqsadida yig‘adi. Mazkur Kongress 65 yil davomida jinoiy odil sudlov sohasidagi siyosatga kuchli ta’sir ko‘rsatdi va transmilliy uyushgan jinoyatchilikning global tahdidiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning kengayishiga ko‘mak berdi.

Mazkur Kongressning VII yig‘ilishida esa, Milan harakatlar rejasi va BMTning “Erkinlik, adolat, tinchlik va taraqqiyot uchun jinoyatchilikning oldini olish” mavzusi bo‘yicha qator yangi standartlar va normalar qabul qilindi. Milan harakatlar rejasi tufayli xalqaro hamjamiyat jinoyatchilik muammosiga insoniyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan global muammo sifatida qaradi. Unda jinoyatchilik inson huquqlari, asosiy erkinliklari va tinchligi, barqarorligi va xavfsizligiga tahdid solishi yana bir bor ta’kidlandi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga universal forum sifatida ko‘p tomonlama hamkorlikda, xususan, terrorizm, giyohvand moddalar noqonuniy muomalasi va uyushgan jinoyatchilikka qarshi birgalikda kurashda jamoaviy choralarni ko‘rishda muhim rol berish tavsiya qilinadi [3]. Natijada “Chet ellik mahkumlarni topshirish to‘g‘risida”gi namunaviy shartnoma ishlab chiqildi [4].

Mazkur Namunaviy shartnoma beshta bo‘limdan iborat bo‘lib, asosiy prinsiplar, alohida shartlar, protsessual normalar, hukmni ijro etish va afv etish qoidalari hamda yakuniy shartlar o‘z aksini topgan. Shunga qaramasdan, Namunaviy shartnoma mahkumlarni topshirish mexanizmini tartibga soluvchi qoidalarni to‘liq qamrab oladi, deb o‘ylamaymiz. Masalan, topshirish tartibi, rad etish asoslari yoki mahkumlarning topshirishga bo‘lgan huquqi va jazoni o‘tash tartibi hamda yuborilgan iltimosnomaga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati mavjud emas. Bu masalalar davlatlarning milliy qonunchiligida yoki ikki tomonlama shartnomalarda aks etmas ekan, xalqaro hamkorlikda bir qancha muammolarni, ya’ni murojaatlarni o‘z vaqtida bajara olmaslik (talab qilingan hujjatlar to‘liq bo‘lmasligi va lozim darajada rasmiylashtirilmaganligi) yoki davlatlararo o‘zaro ishonchning yo‘qolishini keltirib chiqarishi mumkin.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Bundan tashqari, BMT tizimida 1988-yil 9-dekabrda Bosh Assambleyaning 43/173-son rezolyutsiyasi bilan tasdiqlangan “Har qanday shaklda qamoqqa olingan yoki jazoni ijro etayotgan barcha shaxslarni himoya qilish prinsiplari to‘plami” ham mahkumlarni topshirish va saqlash sohasida xalqaro standartlarni belgilash uchun muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu to‘plamda hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxsga nisbatan insonparvarlik va insonning ajralmas qadr-qimmatini hurmat qilish (1-prinsip) hamda hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxs hech qanday qiynoq yoki g‘ayriinsoniy yoxud qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazo turlariga duchor qilinmasligi kerakligi (6-prinsip) kabi qoidalar joriy qilingan.

BMTning 1985-yildagi Mahkumlarga muomala bo‘yicha minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari sifatida 2015-yilda qayta ko‘rib chiqilgan) mahkumlarni topshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ularning huquqlarini himoya qilishning asosiy ustuni vazifasini bajaradi. Bizningcha, mahkumlar bilan muomalada bo‘lishning minimal standart qoidalariga ko‘ra, mahkumlarni topshirish jarayonida ularga berilayotgan ma’lumotlar mahkum tushunadigan tilda berilishi lozim. Shu tariqa, BMT tizimi universal huquqiy asos yaratib, barcha davlatlar uchun mahkumlarni topshirish sohasida umummajburiy minimal standartlarni belgilaydi.

Barchamizga ma’lumki, universal tashkilot sifatida BMT xalqaro huquq subyektlari uchun umumiy bo‘lgan standartlar, ko‘rsatmalar, tavsiyalar, namunaviy hujjatlar ishlab chiqadi. Bu esa davlatlar uchun xalqaro munosabatlarda, ikki va ko‘p tomonlama shartnomalarni ishlab chiqishda mazkur tavsiya etilgan hujjatlarning asos sifatida xizmat qilishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda BMT doirasida namunaviy hujjatlar ishlab chiqish orqali ma’lum bir sohani tizimlashtirishga erishilmoqda. Jumladan, jinoiy odil sudlov sohasida xalqaro hamkorlikka oid bo‘lgan BMTning **“Ushlab berish to‘g‘risidagi namunaviy shartnomasi”**, **“Jinoyat ish yurituvi sohasida o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi namunaviy shartnomasi”**, **“Shartli ayblangan va ozod qilingan huquqbuzarlar ustidan nazorat qilish uchun topshirish to‘g‘risidagi namunaviy shartnomasi”**, **“Jinoyat ish yurituvi uchun topshirish to‘g‘risidagi namunaviy shartnomasi”** va nihoyat, biz tadqiq qilayotgan yo‘nalishga oid bo‘lgan **“Chet ellik mahkumlarni topshirish to‘g‘risidagi namunaviy shartnomasi”** [5] javobgarlik muqarrarligini ta’minlash hamda jinoiy odil sudlov sohasida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lgan davlatlar uchun huquqiy yordam ko‘rsatuvchi omil bo‘lishi ko‘zda tutilgan edi. Mazkur namunaviy shartnomalar ikki tomonlama shartnomalarni qabul qilishda asos sifatida gavdalanar ekan, shubhasiz, majburiy xarakterga ega emasligini bilish lozim. Xalqaro huquq subyektlari tomonidan qabul qilinadigan xalqaro shartnomalarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin bo‘ladi. BMT mazkur namunaviy shartnomalarni e’lon qilishidan maqsad jinoiy odil

sudlov bo‘yicha xalqaro hamkorlikka oid munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar mushtarakligini ta’minlashni ko‘zlagan.

Jumladan, BMTning 1988-yilgi **“Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni g‘ayriqonuniy ravishda muomalaga kiritishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi** [6] konvensiyasi, 2003-yilgi “Korrupsiyaga qarshi kurash to’g’risida”gi konvensiyasi [7] va 2000-yilgi “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to’g’risida”gi [8] konvensiyalarining sudlangan shaxslarni ushlab berish to‘g‘risidagi normalari e’tiborga loyiq. Ularga asosan, “Ishtirokchi davlatlar ushbu Konvensiyaning qoidalariga ko‘ra jinoyat hisoblanadigan ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan va qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilishning boshqa turiga hukm qilingan shaxsni o‘z hududida jazoni o‘tashini tashkil qilish uchun ikki yoki ko‘p tomonlama kelishuvlarni tuzish imkonini ko‘rib chiqishlari mumkin”. Mazkur normadan kelib chiqqan holda, davlatlar ikki tomonlama kelishuvlarga erishishi nazarda tutilgan.

Mahkumlarni topshirish institutining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi masalasida yana bir universal xalqaro tashkilotlardan biri **Xalqaro jinoiy politsiya tashkiloti – INTERPOL** hisoblanadi. INTERPOL mahkumlarni topshirish va ekstraditsiya jarayonlarida muhim koordinatsiya va ma’lumotlar almashinuvi vazifasini bajaradi. Mahkumlarni topshirish institutida mazkur xalqaro tashkilotning o‘rni asosan ikkiyoqlama jinoyatlilik prinsipi buzilmasligini nazoratga olishda namoyon bo‘ladi. Chunki jinoyat sodir etgan shaxs boshqa davlatda shu jinoyati uchun jazosini o‘tayotgan bo‘lsa, INTERPOL bazasida buni ko‘rish imkoniyati bo‘lishi kerak. Bilamizki, qizil xabarnoma (Red Notice) butun dunyo bo‘ylab politsiyani fuqarolardan qochib yurgan jinoyatchilar haqida ogohlantiradi. Qizil xabarnoma ekstraditsiya, taslim bo‘lish yoki shunga o‘xshash qonuniy harakatlarni kutayotgan shaxsni ushlash va vaqtincha hibsga olishni talab qiladi. Rasmiy hibs orderiga asoslangan Qizil xabarnoma bo‘yicha INTERPOLga a’zo mamlakatlar shaxsni ushlash to‘g‘risida o‘z milliy qonunchiligi asosida qaror qabul qiladi [9].

INTERPOL xabarnomalar, ayniqsa Qizil xabarnoma chiqarilgandan keyingi jarayonni batafsil quyidagicha tavsiflaydi:

jinoyatchi topilgan taqdirda, mahalliy huquqni muhofaza qilish idoralari uni milliy qonunchilik va INTERPOL Qizil xabarnomasi asosida ushlashi mumkinmi;

rasmiy ekstraditsiya so‘rovi topshirilgandan keyin, diplomatik kanallar orqali yoki 1957-yilgi Yevropa Ekstraditsiya konvensiyasi kabi amaldagi xalqaro bitimlarga muvofiq rasmiy ekstraditsiya so‘rovi topshiriladimi;

sudlov ko‘rib chiqish davomida qamoqdagi mamlakatning vakolatli sudlov organlari INTERPOL ekstraditsiya so‘rovining qonuniyligini ko‘rib chiqadimi, shu jumladan ikkiyoqlama jinoyatlilik va inson huquqlari buzilishi kabi to‘siqlar mavjudmi.

Koxning ta’kidlashicha, INTERPOL a’zoligi deyarli universal bo‘lgan bir sharoitda Qizil xabarnoma chiqarishni markazlashmagan davlat so‘rovlari hamda Xalqaro jinoyat sudi

(XJS) kabi tasdiqlangan xalqaro tuzilmalar tomonidan ham amalga oshiriladi. Xabarnoma de-fakto xalqaro hibs orderiga yaqin birinchi ko‘rinishni yaratadi. Garchi INTERPOL hech qanday yuridik vakolatga ega bo‘lmasa-da, Qizil xabarnoma odatda chegaradan o‘tishda to‘xtatilish yoki ekstraditsiya jarayonini kutayotgan hibsga olinishga, safarga yoki vizaga rad etishga va bank hamda ish topishdagi keyingi oqibatlar kabi jiddiy ta’sirlarga olib keladi [10].

Yuqorida bayon etilgan tahlillar mahkumlarni topshirish bo‘yicha universal xalqaro-huquqiy rejimning bir qator o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga imkon berdi. Birinchidan, mazkur soha hali-hamon yagona kodifikatsiyalashgan xalqaro hujjatga ega emas, balki BMT namunaviy shartnomalari, mintaqaviy konvensiyalar, maxsus jinoyatlar bo‘yicha shartnomalar va ikki tomonlama bitimlardan tashkil topgan fragmentar, ko‘p qatlamli tizim sifatida mavjud. Ikkinchidan, BMTning “Chet ellik mahkumlarni topshirish to‘g‘risidagi” namunaviy shartnomasi ushbu sohada asosiy yo‘naltiruvchi hujjat bo‘lsa-da, u majburiy huquqiy kuchga ega emas va topshirish tartibi, rad etish asoslari hamda iltimosnomaga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati kabi muhim protsessual masalalarni to‘liq qamrab olmaydi. Uchinchidan, INTERPOLning mahkumlarni topshirish va ekstraditsiya jarayonlaridagi faoliyati shuni ko‘rsatadiki, ushbu tashkilot rasmiy yuridik vakolatga ega bo‘lmasa-da, Qizil xabarnoma tizimi orqali amalda xalqaro hibs orderiga yaqin funksiyani bajaradi va davlatlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi hamda koordinatsiyani ta’minlovchi muqobil yo‘li mavjud bo‘lmagan amaliy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, INTERPOL tizimining markazlashmagan tabiati va uning yuridik majburiy kuchga ega emasligi mazkur mexanizmning milliy huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan qanday tatbiq etilishini to‘liq davlatlar ixtiyoriga qoldiradi, bu esa huquqiy aniqlik va bashorat qilinuvchanlik darajasini pasaytiradi. To‘rtinchidan, UNODC (Giyohvandlikka qarshi idora) tomonidan ma’muriy-texnik ko‘mak ko‘rsatilayotganiga qaramasdan, universal darajada mahkumlarni topshirish jarayonini tartibga soluvchi majburiy xalqaro konvensiya hali ishlab chiqilmagan.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, quyidagi takliflarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Birinchidan, BMT doirasida mahkumlarni topshirish jarayonining protsessual jihatlarini – topshirish tartibi, zarur hujjatlar ro‘yxati, muddatlar va rad etish asoslarini – batafsil tartibga soluvchi universal konvensiya loyihasini ishlab chiqish taklif etiladi. Mavjud Namunaviy shartnoma faqat umumiy prinsiplarni belgilashi sababli, u milliy qonunchilikka asoslanish uchun yetarli huquqiy aniqlikni ta’minlamaydi.

Ikkinchidan, INTERPOLning koordinatsiya imkoniyatlaridan mahkumlarni topshirish jarayonida – ayniqsa ma’lumotlar almashinuvi va identifikatsiya bosqichlarida – tizimli foydalanishni kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, INTERPOL xabarnomalari

asosida amalga oshiriladigan harakatlarda Nelson Mandela qoidalarida mustahkamlangan inson huquqlari kafolatlari, xususan mahbusning qadr-qimmatini hurmat qilish va noinsoniy muomaladan himoya qilish prinsiplari buzilmasligini ta’minlovchi tekshirish mexanizmlarini milliy qonunchilikka kiritish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, BMT Bosh Assambleyasining 43/173-son rezolyutsiyasi va Nelson Mandela qoidalarida belgilangan mahkumlarga muomala standartlarining milliy penitensiar amaliyotga to‘liq tatbiq etilishini muntazam monitoring qilish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Xususan, Nelson Mandela qoidalarining 24–35-qoidalarida nazarda tutilgan tibbiy xizmat ko‘rsatish standartlari va 61–63-qoidalarida belgilangan huquqiy yordam olish kafolatlari mahkumlarni topshirish jarayonining barcha bosqichlarida – tayyorgarlik, amalga oshirish va topshirilgandan keyingi davrda ham – ta’minlanishini nazorat qiluvchi alohida institutsional mexanizm yaratilishi taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, mahkumlarni topshirish bo‘yicha universal xalqaro-huquqiy rejimning hozirgi holati – tizimlashmagan, ko‘p jihatdan tavsiya xususiyatiga ega hujjatlar majmui va INTERPOL kabi rasmiy bo‘lmagan, ammo amalda muhim ahamiyatga ega operatsion mexanizmlar uyg‘unligidan iborat bo‘lib, uning kelgusidagi rivojlanishi aniq protsessual me’yorlarni o‘z ichiga olgan majburiy xalqaro hujjat tomon yo‘naltirilishi, shuningdek Nelson Mandela qoidalarida mustahkamlangan inson huquqlari standartlarining milliy va mintaqaviy darajada to‘liq implementatsiya qilinishi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations Office on Drugs and Crime. (2012). *Handbook on the international transfer of sentenced persons*. https://www.unodc.org/documents/organized-crime/Publications/Transfer_of_Sentenced_Persons_Ebook_E.pdf

2. Арутюнян И. Передача лиц, осужденных к лишению свободы, для отбывания наказания в государстве, гражданами которого они являются // Ведомости уголовно-исполнительной системы. 2007. № 2. – С. 6.

3. Конгрессы Организации Объединенных Наций по предупреждению преступности и уголовному правосудию 1955–2020 годы (Достижения за 65 лет) / Управление ООН по наркотикам и преступности. Брошюра. 2020 г. – С.7-9.

4. 1985 йил Миланда бўлиб ўтган Жиноий одил судлов ва жиноятчиликни огоҳлантириш бўйича БМТ VII Конгрессида қабул қилинди ва шу йили 40/32 сонли Бош Ассамблея резолюцияси билан тасдиқланди. United Nations. (1985). *Model Agreement on the Transfer of Foreign Prisoners and Recommendations on the Treatment of Foreign Prisoners*. Seventh United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders. https://www.unodc.org/unodc/en/organized-crime/transfer-of-sentenced-

persons.html

5. Сборник стандартов и норм ООН в области предупреждения преступности и уголовного правосудия. Часть вторая, глава I. Типовые договоры. – С.196-199.

6. Конвенция Организации Объединенных Наций о борьбе против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ (заключена в г. Вене 20.12.1988 г.). [Электронный ресурс]: www.un.org

7. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции Принята резолюцией 58/4 Генеральной Ассамблеи от 31 октября 2003 года (44-48-моддалари). [Электронный ресурс]: www.un.org

8. Конвенция Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности Принята резолюцией 55/25 Генеральной Ассамблеи от 15 ноября 2000 года. [Электронный ресурс]: www.un.org

9. *About Red Notices*. https://www.interpol.int/en/How-we-work/Notices/Red-Notices

10. American Journal of International Law. (2026). INTERPOL's Red Notices: Human rights safeguards for targeted individuals. *American Journal of International Law*, 120. https://www.cambridge.org/core/journals/american-journal-of-international-law/article/interpols-red-notices-human-rights-safeguards-for-targeted-individuals/0C0D14958E4A13921AA662B68270353D